

HARBIY XIZMATCHILARDA KREATIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Tursunov Shaxzod Ramazonovich

Nizomiy nomidagi O'zMPU Harbiy ta'lim fakulteti

Maxsus tayyorgarlik sikl dotsenti, pedagogika

fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Anotatsiya Mazkur maqolada harbiy xizmatchilar faoliyatida kreativ tafakkurning o'ri va ahamiyati tahlil qilinadi. Kreativ fikrlash harbiy xizmatchining muammoli vaziyatlarda to'g'ri va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada kreativ tafakkurni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar, harbiy ta'lim tizimidagi islohotlar, mashg'ulot jarayonlarida innovatsion metodlardan foydalanish zarurati ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan kreativ tafakkurni shakllantirishga doir amaliy tavsiyalar beriladi.

Аннотация В статье анализируются роль и значение творческого мышления в деятельности военнослужащих. Творческое мышление способствует повышению способности военнослужащего принимать правильные и быстрые решения в проблемных ситуациях. Также рассматривается необходимость современных педагогических и психологических подходов к развитию творческого мышления, реформирование системы военного образования, использование инновационных методов в учебном процессе. Даны практические рекомендации по формированию творческого мышления.

Abstract: The article analyzes the role and significance of creative thinking in the activities of military personnel. Creative thinking contributes to enhancing a serviceman's ability to make correct and prompt decisions in challenging situations. The necessity of modern pedagogical and psychological approaches to developing creative thinking, reforming the military education system, and using innovative methods in the educational process is also examined. Practical recommendations for fostering creative thinking are provided.

Kalit so'zlar: kreativ tafakkur, harbiy xizmatchi, innovatsion yondashuv, strategik fikrlash, muammo yechimi, harbiy ta'lim.

Ключевые слова: креативное мышление, военнослужащий, инновационный подход, стратегическое мышление, решение проблем, военное образование

Keywords: creative thinking, military personnel, innovative approach, strategic thinking, problem solving, military education

Bugungi kunda dunyoda ro‘y berayotgan tezkor ijtimoiy, siyosiy va texnologik o‘zgarishlar sharoitida harbiy xizmatchilarning faqatgina jismoniy tayyorgarligi emas, balki intellektual salohiyati, ijodiy va noan‘anaviy fikrlash qobiliyatlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Harbiy sohada kreativ tafakkur strategik va taktik qarorlar qabul qilishda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda kutilmagan vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topa olishni ta‘minlaydi. Shu bois, harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish dolzarb ilmiy va amaliy masala sifatida qaraladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “Harbiy xizmatchilarning ruhiy jihatdan chidamli bo‘lishi haqida gapirganda, keyingi paytda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo‘layotgan qurolli to‘qnashuvlarda ko‘zga tashlanayotgan bir holatga e‘tiboringizni qaratmoqchiman. Ya‘ni, jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o‘rtasidagi yo‘qotishlarning asosiy qismi kuchli ruhiy ta‘sir va zarbalar bilan bog‘liq ekani ma‘lum bo‘lmoqda. Bunday ruhiy jarohatlarni hatto tinch hayot sharoitida ham davolash juda murakkab masaladir. Shu munosabat bilan tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi bo‘yicha prinsipial jihatdan yangi me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqishi zarur. Bu borada asosiy e‘tiborni harbiy-amaliy masalalarni hal etishga yo‘naltirish lozim. Harbiy xizmatchilar har tomonlama sog‘lom va chidamli bo‘lishi, har qanday murakkab jismoniy va ruhiy sinovlarga bardosh berishi kerak”¹.

Harbiy ta‘lim jarayonida rolli o‘yinlar, simulyatsiya mashg‘ulotlari va analitik muammolar asosida o‘qitish uslublari kursantlarda mustaqil fikrlash va muammolarga turlicha yondashuvni shakllantiradi. Bu metodlar ijodiy va strategik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarning stressga chidamliligi va aqliy moslashuvchanligi kreativ tafakkurning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, chunki ruhiy barqarorlik jangovar vaziyatlarda shaxsiy va jamoaviy samaradorlikni ta‘minlaydi. Yangi g‘oyalarni ilgari surgan va amaliyotda qo‘llagan xizmatchilarni rag‘batlantirish esa

¹ Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 152 b.

ularning motivatsiyasini oshirib, ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida harbiy simulyatsiyalar va virtual mashg‘ulotlar tashkil etish kursantlarga yangi yondashuvlarni sinab ko‘rish imkonini yaratadi.

Oliy harbiy ta‘lim tizimini doimiy ravishda modernizatsiya qilish sharoitida yuqori malakali ofitserlarni tayyorlashda kreativ tafakkurning roli katta. Bu nafaqat ofitserning intellektual salohiyatini oshiradi, balki ekstremal sharoitlarda yuqori professional harakatchanlik va psixologik barqarorlikni ta‘minlashga yordam beradi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta‘kidlashicha, jangovar harakatlar davomida yuzaga keladigan ruhiy jarohatlarni davolash murakkabligi harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligini oshirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Shu munosabat bilan, harbiy xizmatchilarni ma‘naviy, jismoniy va intellektual jihatdan barqaror tayyorlash uchun yangi me‘yoriy hujjatlar va tizimlar ishlab chiqilmoqda. “Kreativlik” atamasi XX asrning 50-yillari oxirida G‘arb psixologiyasida paydo bo‘lib, odamning yangi tushunchalar yaratish va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyatini anglatadi. Kreativlik shaxsning yangi moddiy va ma‘naviy qadriyatlarini yaratish, muammolarga nisbatan yuqori sezgirlik, natijalarni bashorat qilish va g‘ayrioddiy yechimlar topish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shaxsning intellektual va emotsional salohiyati kreativlik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Har bir insonning kreativ tafakkur sohibi ekanligi uning fikrlash tarzida, ijodiy muloqotida va his-tuyg‘ularini boshqarishida namoyon bo‘ladi.

Qurolli Kuchlarga shaxsiy faol va mustaqil mutaxassislar kerak bo‘lib, ular yuqori ishtiyoqlilik, bilimlarni tez yangilashga tayyorlik va ijodiy yondashuv qobiliyati bilan ajralib turadi. Bo‘ljak ofitserlarning kreativ tafakkurini shakllantirish ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish va noan‘anaviy yechimlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. Kursantlarning kreativlik qobiliyati muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki loyihalarni amalga oshirish va ijodiy hamkorlik orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois, harbiy xizmatchining faoliyati ma‘naviy-axloqiy va intellektual-ijodiy jihatlarni uyg‘unlashtirishga bog‘liq. Yosh harbiy mutaxassislarning mustaqil qaror qabul qilishida ijtimoiy-psixologik usullardan foydalanish va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Kursantlar o‘rtasida professional ijodiy tafakkur ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, treninglar va master-klasslar orqali shakllantiriladi. Qurol-yarog‘ va jihozlarning murakkablashuvi harbiy xizmatchidan chuqur bilim va tajribaga ega bo‘lishni talab qiladi, shu bois kreativ

tafakkur mustaqil fikrlash va nostandart muammolarni hal qilish zaruratini o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish nafaqat muhim, balki zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Bu esa harbiy ta’lim tizimini takomillashtirish, innovatsion metodlarni joriy etish, psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish va rag‘batlantirish tizimini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari va amaliy chora-tadbirlar harbiy sohada yuqori malakali, kreativ fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Турсунов Шахзод Рамозонович (2016). Патриотическое воспитание курсантов военных образовательных учреждений. Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/patrioticheskoe-vozpitanie-kursantov-voennyh-obrazovatelnyh-uchrezhdeniy-1>
2. Tursunov Shahzod Ramozonovich. (2021). ABOUT PATRIOTISM IN THE CONTEXT OF GLOBAL REALITY IN THE XXI CENTURY. Archive of Conferences, 23(1), 50-51. Retrieved from <https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/890>
3. Abdullaev, Sh. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik: nazariy va amaliy asoslar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 256 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekistonni Rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hujjatlar to‘plami – T., 2017 – B.37. 20
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 163 b.
6. Sherov M.B. O‘zbekiston harbiy xizmatchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari. Falsafa fanlari bo‘yicha fal. doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 13 b
7. Begmatov A., Alineva K., Abdushukurov B. Rahbar va yangicha tafakkur. -T.: Akademiya, 2008. - 65 b.